

# **Uzbekistan Airways parvoz o'quv muassasalari bitiruvchilarini ishga qabul qilishini ma'lum qiladi**

**2025 30 Iyul**

## **Nomzodlarga qo'yiladigan talablar:**

- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi;
- 21 yoshdan 36 yoshgacha.

**Eslatma:** Hujjatlarni topshirish kunida 20,5 yoshga to'Imagan yoki 36 yoshga to'lgan shaxslar tanlov saralashida ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi;

- fuqaro aviatsiyasi uchuvchisining tugallangan aviatsiya ta'limi;
- ariza berish vaqtida FA parvoz o'quv yurti tugallanganidan boshlab 2 (ikki) yildan ortiq bo'Imagan vaqt davri;
- havo kemasida CPL dasturi bo'yicha FA parvoz o'quv yurtida 120 uchish soatidan kam bo'Imasligi;
- havo kemasida CPL ruxsatnomasiga ega bo'lib MPL dasturi bo'yicha FA parvoz o'quv yurtida 50 uchish soatidan kam bo'Imasligi;
- qurilma bo'yicha parvozga ruxsatga ega bo'lishi (Instrument Rating);
- ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan hajmda davlat tili, rus va ingliz tillarini bilish;
- "kamida 4 balldan iborat bo'lgan ICAO baholash shkalasi bo'yicha ingliz tilini bilish darajasi sertifikatiga ega bo'lish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, erkak nomzodlar uchun, harbiy xizmatga yaroqlilik belgisi bilan O'zbekiston Respublikasi harbiy guvohnomasining mavjudligi;

Nomzodlar elektron shaklda (PDF) quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari kerak:

- Ariza ([ilova](#))
- pasport nusxasi
- FA uchuvchisi guvohnomasi
- ta'lim to'g'risidagi hujjatlar, parvoz soatlari va h.k.;
- qurilmalar bo'yicha parvozga ruxsatga berilganligini tasdiqlovchi hujjatini (Instrument Rating);
- ingliz tili darajasi ICAO 4 shkalasi va undan yuqoriligini tasdiqlovchi sertifikat;
- harbiy xizmatga yaroqlilik belgisi bilan O'zbekiston Respublikasi harbiy guvohnomasining mavjudligi (harbiy xizmatga majburlar uchun);

Hujjatlarni qabul qilish **2025-yil 31-avgustga qadar** amalga oshiriladi.

Rejalashtirilgan tanlov sanasi Toshkent shahrida **2025-yilning 8-sentabr** kuni bo'lib o'tadi.

**Hujjatlarni quyidagi elektron manziliga PDF-formatida yuborishingizni so'raymiz: [pilot.career@uzairways.com](mailto:pilot.career@uzairways.com)**

**Eslatma:** O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlat fuqaroligiga ega bo'lgan nomzodlar buni Arizada ko'rsatishlari shart. Agar ushbu ma'lumotni yashirish to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlansa, ushbu nomzodlarni ko'rib chiqish tanloving keyingi protseduralarida bekor qilinadi.